



**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI, GUMANITAR
FANLAR VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI, TARIX
YO'NALISHI 1-KURS TALABASI.**

“Qizilqumdan Qizil Yulduzgacha: O'zbekistonning urushdagi sirli kuchi”

JUMAYEVA FARIDA RO'ZIBOYEVNA

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek ayollarining frontda ko'rsatgan jasoratlari haqida so'z boradi. Bu ayollarning ko'pchiligi urushning boshidan to'plar gumburlashi, o'qlar yomg'iri va minalarning chinqirib uchishiga qaramasdan daxshatli kurash maydonida o'zlarining o'zbek ayoliga xos bo'lgan mardanovor va jangovar ruh bilan kurash olib boradilar.

Kalit so'zlar: Aloqachi, mergan, Zebo G'aniyeva, “Qizil bayroq”, “Snayper”, Roza Ibrohimova, Moskva, Soliha Davronova, Aziza Qalandarova, “Qizil yulduz”, Buxoro, Xosiyat Halimova, “Jangovor xizmatlari uchun”.

Ikkinchi jahon urushida fashizm qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining o'zni beqiyosdir. Vatanimiz tarixini holis va haqqoniy o'rganar ekanmiz: Ikkinchi jahon urushi keltirib chiqargan mislsiz yo'qotishlar, urushda erishilgan g'alabagacha bo'gan davrda o'zbek xalqining nafaqat erkakalari shu o'rinda ayollarning ham ulkan hissasi qo'shildi. Urush davrida o'zbek ayollari ko'rsatgan jasorati, matonati biz avlodlar uchun muqaddas xotira va odamiylikning yuksak belgisi bo'lib qoldi. Ikkinchi jahon urushida hammasi bo'lib 1 433 230 nafar o'zbekistonlik qatnashdi. Ular orasida 4555 nafar ayol kishi bo'lgan. Ayollar orasida aloqachi, mergan, zenitchi, tibbiyot xodimlari, razvetkachi va boshqalar bo'lgan.



Xususan: Roza Ibrohimova, Zebo G'aniyeva, Muqaddam Ashrapova, uning dugonalari Anvara Muharamova, Po'latoy Qodirova, Sobira Majidovalar, Rahima Alimova, Maryam Yusupova, Aziza Qalandarova, Salomat Sangirova, Xosiyat Halimova va boshqalar qatnashgan. Zebo G'aniyeva Moskvani himoya qilishda juda katta yordam bergan. Bu vaqtda Zebo G'aniyeva Moskvadagi institutda o'qir edi. Urush boshlangach, Zebo G'aniyeva Andijonga qaytib ketishni emas, frontda jang qilishni afzal ko'rdi. Tez orada u mohir mergan bo'lib yetishdi. Uning harbiy qismi Moskva-Volga bo'ylab joylashgan edi. (172-173) Zebo G'aniyeva Moskva uchun bo'lgan janglarda hamshira, minomyotchi, snayperchi va pulyemotchi sifatida ishtirok etadi. Leningrad yo'nalishidagi janglarda yarador bo'lib qoladi. Bunga qadar 129 nafar fashistni yo'q qiladi. (156) 1943-yil avgustda Demyanskda bo'lgan jangda og'ir yarador bo'ldi, 33marta jarrohlik operatsiyasiga bardoshberib o'limni yengib o'tadi. Zebo G'aniyeva urushdan keyin ham tinib-tinchimadi, tirishqoqlik bilan o'qidi. Bokuda institutni tamomlab, Moskva jahon adabiyoti institutida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. (173) Zebo G'aniyeva "Qizil Bayroq", "Qizil Yulduz" ordeni, "Snayper" nishoni, "Moskva mudofasi uchun" medali va 1-darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlangan. (249)

Sovet Ittifoqi tarkibidagi yurtni himoya qilish uchun jasorat ko'rsatgan ayollardan biri bu Roza Ibrohimova edi. U 1943-yil O'zbekistondagi aloqachilik maktabini tugatib, Moskva yaqinidagi radio vazoniga borib tushadi. Roza Ibrohimova Berlinni ishg'ol qilish uchun bo'lgan janglarda munosib qahramonliklar namoyon etgan. 3-Belorusiya fronti tarkibida erkak jangchilar bilan birgha radiorazvedkachi vazifasini bajaradi. 1944-yil bahorida jasur o'zbek ayoli dastlan Moskva yaqinidagi alohida diviziyada, so'ng 4-tankchilar guruhida xizmatni boshlaydi. Jang maydonida uning o'rni juda katta bo'lgan.

Urushga ketgan ko'ngillilar orasida Buxorolik Soliha Davronova, Rahima Olimova, Salomat Sangirova, Xosiyat Usmonova, Qosimovalar ham bor edi.



Soliha Davronova dastlab qismga sanitariya instruktori, keyinroq esa yosh komandirlikdan ofitserlik darajasiga ko'tariladi. U janglarda ko'rsatgan qahramonligi uchun "Jasurligi uchun" medali, "II darajali Vatan urushi", "Qizil yulduz", ordeni bilan mukofotlanadi. O'zbekistonlik jasur qizlardan biri Aziza Qalandarova edi. U 1941-yilning sentyabrida armiya safiga chaqiriladi. U 6 oy davomida zenitchilikni emas, hatto stanokli pulemyotdan otishni ham yaxshi o'rganib oladi. Qisqa muddatli mashqlar davomida navodkachi bo'lib yetishdi. 1943-yilning 7-iyulida navodkachi Azizaxon fashistlarning bombardimonchi samaliyotini urib tushiradi. 8-iyuldagi janglarda baraliyonning zenitchilari dushmanning 8 ta samaliyotini urib tushiradi. Ularning birinchisini Aziza Qalandarova raschyotchi nishonga oladi. Ana shu qahramonliklari uchun "Qizil yulduz" ordeniga tafsia etiladi. 1942-yil Buxorolik 21 nafar qiz vatan ozodligi uchun urushga ketishga ariza berdi. Ulardan biri Xosiyat Halimova bo'lib 90-o'qchilar brigadasida, so'ngra tank korpusida aloqachi bo'lib xizmat qiladi. Xosiyat Halimovaga "Jangariligi uchun", "Jangovar xizmatlari uchun" va boshqa medallar bilan mukofotlanadi. Toshkent meditsina instituti sobiq talabalari Sobira Majidova, Nuri SHokirova, Po'latoy Qodirova, Vasila Sayfulina, Matlab Muxtorova uning jngovor dugonalari Xosiyat Usmonova, Saida Kamalova, Bashorat Xo'jayeva, Munira G'iyosova umimg singlisi Rosiya G'iyosova kabi urush jangohlarida jasorat ko'rsatgan qizlar O'zbekistonliklar faxri hisoblanadi. Ularning deryarli barchasi ko'ngillilar safida urushga ketib, erkaklar bilan bir safda dushmanga qarshi kurash olib bordilar. Xullas urush yillarida O'zbekistonlik xotin-qizlar fidokorona ishtirok etib, misli ko'rilmagan qahramonliklarni amalga oshirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Rajabova, R.Karimov, K.Oqilov va boshqalar: O'zbekiston tarixi . Toshkent O'qituvchi 1994. 249-bet



2. Q.Usmonov. M.Sodiqov: O'zbekiston tarixi. Toshkent-2010. 172-173-bet
3. S.Tillaboyev, D.Kenjaye, N, Mustafayeva, A.Zamonov va boshqalar: 10-sinf O'zbekiston tarixi . Toshkent 2022. 156-bet
4. Adham Rahmat. SHinelli qizlar. –T.,1970. B. 33-34
5. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. –T. Fan1975. B.32
6. Adham Rahmat. Ko'rsatilgan asar 98-102- bet
7. Odinaxon Dehqonova. Aloqachi, ucuvchi, mergan, tibbiyotchi, razvedkachi. Front ortida jasorat ko'rsatgan o'zbek ayollari //https://platina.uz
8. Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgn hissa. –T.Fan, 1975
9. Sirojev O. Fashizm ustidan erishilgan g'alabada Buxoroliklarning roli. –T.: O'zbekiston, 1996.
10. Yorbozorova Z. Bitiruv malakaviy ishi. Qarshi shahri-2013